

**INSON OBRAZINI IFODALOVCHI ZONIM KOMPONENTLI
INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI**

Aripova Iroda Ikrom qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

irodaikramovna@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi inson obrazini ifodalovchi zoonim komponentli ingliz va o'zbek maqollarining lingvomadaniy xususiyatlari mavzusida olib borilgan tadqiqot ishimiz yoritib beriladi. Maqollarning har ikki tilda o'xshash va farqli jihatlari hamda muqobil variantlari lingvomadaniy jihatdan tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *paremiologiya, parema, maqol, lingvomadaniy, zookomponent, folklor, mentalitet, milliy xarakter.*

Annotation: *This thesis presents a study on the linguistic and cultural characteristics of English and Uzbek proverbs that express the image of a person through zoonym components. It analyzes the similarities and differences of proverbs in both languages, as well as their alternative variants from a linguistic-cultural perspective.*

Key components: *paremiology, parema, proverb, linguocultural, zoo component, folklore, mentality, national character.*

Dunyo tobora jadal rivojlanib, yangi texnologiyalar ishlab chiqilayotgan, turli internet imkoniyatlari yaratilayotgan va sun'iy intellektning o'рни shiddat bilan kuchayib borayotganiga qaramay, jamiyatimizda ilm-fan sohasiga bo'lgan qiziqish va o'rganilishi lozim bo'lgan muammolarning, tadqiqotchilik ishlarining olib borilishiga bo'lgan talab alohida tahsinga sazovordir. Jamiyatimizda yoshlarning bilim olishga, turli sohalarda ilmiy va amaliy tadqiqotchilik ishlarini olib borishiga alohida keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jumladan, ilm-fan sohasida aynan tilshunoslik yo'nalishida ham, qiyosiy tilshunoslikda va folklorshunoslikda maqollarni chuqurroq o'rganish bugungi kun qiyosiy tilshunosligining muhim ahamiyat kasb etadigan bir janri sifatida tadqiq etilmoqda. Uning muhim xususiyati shundaki, u fanlararo xarakterga ega bo'lib, ilm-fanning har bir sohasi bilan bog'lab o'rganishni talab etadi. Natijada paremiologiya, ya'ni maqollarni o'rganish tilshunoslikda alohida soha sifatida paydo bo'ldi. Maqollar fanda parema lar deb o'rganiladi. Maqollar turli millat vakillarining xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida folkloristik jihatdan folklorshunos olimlar tomonidan o'rganiladi, ular

har bir xalqning o'tmish kechinmalari, turmush tarzidan hikoya qiluvchi o'lmas meros sanaladi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan - paremiologik birliklar ya'ni paremalarning morfologik va sintaktik tuzilishi, ularning pragmatik va stilistik jihatlari o'rganiladi.

Folklorshunoslik bo'limida - turli xalqlarga oid maqollar, iboralar, ertak va matallar xalq ijodining og'zaki va yozma merosi sifatida o'rganiladi va ularning kelib chiqish tarixi, ahamiyati tahlil etiladi.

Kognitiv va psixolingvistik yondashuvda maqollar va matallar inson ongi - shuuri va muloqotidagi roli hamda ularning xotirada mustahkamlanilishi va amaliyotda qo'llanilishi jihatidan o'rganiladi. O'zbek tilida hikmatli iboralarni umuman maqol deb atashadi, ammo bu tushunchani ifodalash uchun o'ndan ortiq atama qo'llanadi: maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so'zi, donishmandlar so'zi, donolar so'zi, yaxshilar so'zi, burungilar so'zi, ulusning so'zi, hikmatli so'z va hokazo.

XX asrning oxirgi 30-yilida maqollarni tahlil qilishning yangi struktur semantik yondashuvi yuzaga keldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya fan sohalarida taraqqiyoti bilan bog'liq. Ilmiy paremiologiya asoschilaridan biri G. L. Permyakovdir. Uning fikricha, "tugallanmagan fikr"ni ifodalovchi majoziy so'z oborotlariga matallar, "tugallangan fikr"ni shakllantiruvchi majoziy ma'noli gaplarga maqollar deyiladi. Turli xil xalqlarda maqollar turli xil ko'rinishlarga ega. O'zbeklarda maqol, tojiklarda "zarbulmasal", turklarda "ata so'zi" ruslarda esa "poslovitsa" so'zlari bilan ataladi.

Maqollar turli xil millat va elatlarning madaniyati, tafakkuri va turmush hayotini ko'rsatib beruvchi muhim til birliklari sifatida o'rganiladi. Aynan inson xususiyatlarini ko'rsatuvchi maqollar esa kishilarning xulq-atvori, xarakteri, ijobiy va salbiy jihatlari o'zida aks ettiradi. Jamiyatda turli xildagi insonlarni kuzatamiz, ular o'zlarining hatti-harakatlari, muomala madaniyati va atrofdagilar bilan munosabatlari davomida qanday xususiyat egasi ekanligini namoyon etadi. Bu xususiyatlarni ko'rsatib berish uchun esa aynan maqollardan foydalanish muhim o'rin kasb etadi. Jumladan, to'g'rilik va egrilik, yaxshilik va yomonlik, mehribonlik va baxillik, g'amxo'rlik va beparvolik, kamtarlik va manmanlik, hasadgo'ylik va ochiqko'ngillilik kabi xislatlar insonlar o'rtasida ko'plab kuzatiladi.

Zoonim – bu hayvonlarga oid nomlardir. Tilshunoslikda bu atama ko'proq zoomorfik metaforalarda, iboralarda va, albatta, maqollarda uchraydi. Maqollarda hayvon obrazi orqali insonning ma'lum bir sifati yoki xatti-harakati qiyos orqali ifodalanadi. Bunda:

Tulki – ayyorlik;

Eshak – dangasalik yoki mehnatkashlik;

Bo'ri – yovuzlik yoki shafqatsizlik;

Qo'y – itoatkorlik yoki sodda fe'llik;

Burgut – jasorat va qat'iyatlilik ramzlari sifatida talqin etiladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim asosli maqollar ushbu obrazlarni o'z madaniy kontekstida aks ettiradi. Har ikkala tilda ham hayvonlar orqali inson xarakterini baholash, tarbiyaviy maqsadlar uchun uqtirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Har bir xalqning tarixiy, ijtimoiy, diniy va ekologik sharoitlari uning tilida aks etadi. Shu bois, ingliz va o'zbek maqollaridagi hayvon obrazlari ham ba'zida bir-biridan farq qiladi.

Masalan:

Inglizlar uchun tulki – salbiy obraz: ayyor, yolg'onchi.

O'zbeklarda ham tulki ayyorlik timsoli, ammo ba'zida "aql" bilan bog'lanadi.

Shuningdek, cho'chqa obrazi ingliz tilida (xristian madaniyatida) salbiy emas:

"As happy as a pig in mud" — Juda mamnun odam haqida.

Ammo islomiy madaniyat ta'siridagi o'zbek tilida cho'chqa salbiy, jirkanchlik obrazidir. Bu farq diniy va madaniy qadriyatlarning tilga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Maqollar orqali inson obrazini ifodalashda zoonim komponentlar madaniy tafakkurning chuqur ildizlariga asoslanadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim asosli maqollar bir-biriga o'xshash, lekin madaniyatlararo tafovutlar ularning semantik yuklamasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bunday maqollar tarjima qilinayotganda faqat lug'aviy emas, balki madaniy ekvivalent asosida yondashish lozim.

Zoonimlar asosida yaratilgan maqollar xalq ruhiyatini o'rganishda, tarjima amaliyotida, til o'qitish metodikasida ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Z.Xolmanova-Tilshunoslik nazariyasi[Matn]:darslik-Toshkent;Shafolat nur fayz.-2020.-256b
2. D. Ubaydullayeva , S. Qayumova, "O'zbek Xalq Maqollarining O'zbek Folklorshunosligida O'rganilishi". Miasto Przyszłości Kielce 2022.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. – 207b.
4. Axmedova U.K-Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari-Dis.-Urganch.-2014y-90b.
5. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Nomz. dissert. T. 2017